Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.112.2

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

O‘zbek va nemis lingvomadaniy makonida ta’lim konseptining struktur-semantik va metaforik ifodalanishi

Go’zalxon Raxmonaliyevna Astonova*

Farg’ona davlat universiteti

✉ gozalxonastonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda o‘zbek va nemis tillarida ta’lim tizimiga oid leksik birliklar hamda “Ta’lim” va “Bildung” konseptlarining struktur-semantik, kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda F. de Sossyur, L. Blumfild, J. Lyons, A. Vejbitskaya hamda J. Lakoff va M. Jonsonning nazariy va metodologik qarashlariga tayanilgan.

Kalit so‘zlar

ta’lim leksikasi, Bildung, struktur-semantik tahlil, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, semantik maydon, konseptual metafora, qiyosiy tilshunoslik.

DOI: 10.5281/zenodo.23277840

KIRISH

O‘zbek va nemis tillarida ta’lim tizimiga oid leksik birliklarning struktur-semantik tahlilini olib borishning asosi, avvalo, zamonaviy lingvistika, kognitiv tilshunoslik, konseptologiya va qiyosiy tilshunoslikning ilg‘or g‘oyalari hamda yutuqlariga tayanadi. Til ijtimoiy ong shakli bo‘lib, u xalqning madaniy xotirasi, ijtimoiy qadriyatlari va tafakkur tarzini aks ettiradi. Shu bois har bir tilda “ta’lim” kabi konseptlarning semantik va struktur xususiyatlarini o‘rganish nafaqat til tizimini, balki xalq tafakkurining asosiy kodlarini tahlil qilish imkonini beradi.

XX asrning eng muhim tilshunoslik yo‘nalishlari – strukturalizm, semasiologiya, kognitivizm va lingvokulturologiyaga tayangan holda o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Tilning struktur tabiati haqidagi dastlabki nazariy asosni shveytsariyalik olim Ferdinand de Sossyur yaratgan. U o‘zining mashhur “Cours de linguistique générale” (“Umumiy tilshunoslik kursi”) asarida tilni ijtimoiy belgilar tizimi sifatida talqin qilib, til birliklarining o‘zaro munosabatlari paradigmatik va sintagmatik aloqalar orqali semantik tahlil qilinishi zarurligini ta’kidlaydi.[1] Shu nazariy asos bugungi kunda leksik birliklarning struktur-semantik tahlilida ham metodologik yo‘nalish sifatida muhim o‘rin tutadi. Keyinchalik amerikalik olim Leonard Bloomfield “Language” (Til) asarida struktur yondashuvni yanada tizimlashtirib, leksik birliklarning ma’nosini ularning sintaktik vazifasi va kontekstual munosabatlari bilan izohlashga uringan. Bu yondashuv o‘zbek va nemis tillaridagi “ta’lim” bilan bog‘liq terminlarning sintaktik faoliyatini tahlil qilishda ham ahamiyatlidir.

XX asrning ikkinchi yarmida ingliz olimi John Lyons “Semantics” (Semantika) nomli asarida semantik maydonlar nazariyasini ishlab chiqdi. U so‘zlarning ma’nosi tildagi boshqa birliklar bilan o‘zaro munosabatda aniqlanishini ta’kidladi.[2] Bu nazariya “ta’lim”, “bilim”, “tarbiya”, “o‘qituvchi”, “talaba”, “pedagog”, “Bildung”, “Ausbildung”, “Lehrer”, “Student” kabi birliklarning o‘zaro semantik aloqalarini tahlil qilishda nazariy

asos sifatida muhim hisoblanadi.

Shuningdek, A.Vejbitskaya tomonidan ilgari surilgan Natural Semantic Metalanguage (NSM) nazariyasiga ko‘ra, har bir madaniyat o‘zining semantik kodlari orqali dunyoni anglaydi. Shu nuqtayi nazardan, “ta’lim” konsepti har bir tilning madaniy semantik tizimida turlicha obyektivlashib, o‘zbek tilida u ma’naviy va axloqiy mazmun bilan, nemis tilida esa mehnat, tartib va shaxsiy mas’uliyat kabi g‘oyalar bilan bog‘lanadi.

Shuningdek, J.Lakoff va M.Jonsonning “Metaphors We Live By” asarida ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi ham ushbu tadqiqot uchun metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Ularning fikricha, inson tafakkuri metaforalar orqali shakllanadi va til bu metaforalarning tashuvchisidir.[3] Masalan, o‘zbek tilida “ta’lim – nur”, “ilm – hayotning kaliti”, “bilim – poydevor” kabi metaforalar ta’lim konseptining ijobiy, nurli va hayotbaxsh semantik modelini yaratadi.

Nemis tilida esa “Bildung” yoki “Ausbildung” konseptlari orqali ta’lim insonni shakllantiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida talqin etiladi. Shu tariqa metaforik semantika til va tafakkur bog‘liqligini tahlil qilish uchun asosiy metodlardan biri sifatida qo‘llanadi.

Til va tafakkur o‘rtasidagi aloqani o‘rganishda E.Sapir va B.Uorfning g‘oyalari ham muhim o‘rin tutadi. Ularning lingvistik nisbiylik gipotezasiga ko‘ra, insonning dunyoni idrok etishi u so‘zlashayotgan til orqali belgilanadi. Shu bois o‘zbek va nemis tillarida “ta’lim” konseptining ma’nosi, uni ifodalovchi birliklarning semantik maydoni milliy tafakkurga mos tarzda shakllanadi. Nemis tilida ta’lim – “intizom va mehnatsevarlik”, o‘zbek tilida esa “ilm va odob” tushunchalari bilan bevosita bog‘liq.

Nemis tilshunosligi tarixida V. fon Gumboldtning “Til – millat ruhi” haqidagi g‘oyasi, shuningdek, L.Veysgerberning “lingvistik dunyo manzarasi” nazariyasi aynan ta’lim sohasidagi konseptlarning madaniy shakllanishini tushuntirish uchun asos bo‘la oladi. Ularning fikricha, har bir til dunyoni o‘ziga xos tarzda modellashtiradi.[4] Shu bois, “Bildung”, “Ausbildung”, “Studium” kabi birliklar nemis xalqining individualizm, mehnat axloqi va ijtimoiy mas’uliyat haqidagi qadriyatlarini lingvistik jihatdan aks ettiradi.

F. de Sossyur strukturalizmi, J.Lakoff va M.Jonson kognitiv metafora nazariyasi, A.Vejbitskaya semantik kodlar konsepsiyasi, M.Pimenova konseptual tahlili hamda o‘zbek tilshunosligidagi A.Hojiyev va Sh.Rahmatullayevlarning semantik ishlanmalari tadqiqot uchun tayanch bo‘ldi. Natijada “ta’lim” konsepti ikki tilda ham kognitiv-semantik tizim sifatida tahlil qilinib, u orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy ideallari lingvistik shaklda ifodalandi.[5]

“Ta’lim” konsepti atrofida shakllangan leksik birliklarning ichki tizimi, ularning ma’no aloqalari, metaforik va madaniy konnotatsiyalarini aniqladik. O‘zbek va nemis tillarida “ta’lim” konseptini faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki milliy ong va madaniy tafakkur ifodasi sifatida tahlil qildik. Natijada tilning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, har bir xalq tafakkuridagi ta’lim tushunchasining o‘rni va semantik strukturasini ochib berish imkonini yaratdi.

O‘zbek va nemis tillaridagi ta’lim tizimiga oid leksik birliklar til tizimida nafaqat terminologik, balki konseptual va madaniy mazmunga ega murakkab semantik qatlamni tashkil etadi. Har ikki tilda “ta’lim” konsepti inson kamoloti, ijtimoiy taraqqiyot va madaniy rivojlanishning asosi sifatida namoyon bo‘ladi, biroq bu tushuncha milliy tafakkur va til strukturasi asosida turlicha shakllanadi.

Nemis tilida esa “Bildung” konsepti markaziy o‘rinni egallaydi. Bu leksema tarixan “shakllanish”, “insonning ichki va tashqi kamoloti”, “aql va madaniyat uyg‘unligi” ma’nolarini anglatadi. Nemis tili tizimida “Ausbildung”, “Lehrer”, “Schule”, “Gymnasium”, “Studium” kabi terminlar ta’lim jarayonining bosqichlarini ifodalaydi. Ularning semantik tuzilishida tizimlilik, aniqlik, mehnat va intizom konseptlari ustuvorlik qiladi. Shu bois, “Bildung” tilda nafaqat bilim olish jarayoni, balki insonni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’ul shaxs sifatida shakllantiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi ta’lim konsepti ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan, nemis tilidagisi esa intellektual va individual rivojlanish g‘oyalari bilan bog‘liq. Har ikkala tilda ta’lim konseptining semantik yadrosini bilim olish, shaxs kamoloti, jamiyat farovonligi kabi umumiy g‘oyalar tashkil etsa-da, ularning konnotativ jihatlari farqliligi ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tili “ta’lim”ni nur, ma’rifat va odob bilan bog‘lasa, nemis tili “Bildung”ni erkinlik, intizom va mehnatsevarlik konseptlari orqali talqin etadi.

XULOSA

O‘zbek va nemis tillaridagi ta’lim tizimi leksikasi o‘z milliy tafakkuri va ijtimoiy qadriyatlari asosida shakllangan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat insonni barkamol, bilimli va ijtimoiy mas’ul shaxs sifatida tarbiyalash g‘oyasidir. “Ta’lim” va “Bildung” konseptlari turli madaniy-milliy asosda shakllangan bo‘lsa-da, ularning semantik yadrosida bilim va kamolot g‘oyasi uyg‘unlashganligini ko‘rish mumkin. Shu bois ta’lim konseptining til tizimidagi struktur-semantik tahlili nafaqat lingvistik, balki madaniy va falsafiy qimmatga ham ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Saussure F. de. Cours de linguistique générale. – Paris: Payot, 1916.

[2] Lyons J. Semantics. Vol. I. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P.21.

[3] Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – P.34.

[4] Sapir E., Whorf B.L. Selected Writings on Language, Culture and Personality. – Berkeley: University of California Press, 1958. – P.35.

[5] Пименова М.В. Концептуальный анализ языковых единиц. – Кемерово: КемГУ, 2011. – С.14.